

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti
“Maktabgacha ta’lim” kafedrasining 2024 yil 6-may

№ 15 - sonli yig’ilishi

BAYONNOMASI

Qatnashdilar: majlis raisi “Maktabgacha ta’lim” kafedrası mudiri Sh.Suyunov.

O’qituvchilar: dots.M.O’.Naimov, N.Xolmirzayev, L.Elmurodova, I.Turdiyeva, N.Kurbanova, B.Shaximardonova, E.Bobomurodov, N.Shoymadonova, S.Esanova, M.Ermatova, M.Yo’ldosheva, N.Shaymardonova, va boshqalar.

Kun tartibi:

Professor-o’qituvchilar tomonidan ochiq darslarni o’tkazish va o’zaro darslarga kirishning tashkil etilishi to’g’risida

O.Achilovning ochiq darsi muhokamasi mas’ul:

kafedra mudiri Sh.Suyunov

Ochiq darsning mohiyati haqida bahs – munozara: O.Achilovning axboroti “Maktabgacha ta’lim-tarbiyani tashkil etish” fanidan “Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida o’quv metodik hujjatlarni yuritish.Pedagogik kengashni o’tkazishga rahbarlik qilish” mavzusidagi ochiq darsining muhokamasi.

Kafedra yig’ilish raisi Sh.J.Suyunov .

Hurmatli professor-o’qituvchilar **O.Achilovning** ochiq darsi “Maktabgacha ta’lim-tarbiyani tashkil etish” fanidan *“Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida o’quv metodik hujjatlarni yuritish.Pedagogik kengashni o’tkazishga rahbarlik qilish”* mavzusida 6.05.2024 yil 104- xona 3-para “Pedagogika” fakultetining 1-kurs maktabgacha ta’lim yo’nalishi 2-MT-23 guruh talabalari bilan o’tkazildi. Mashg’ulot jarayonidada maktabgacha ta’lim tashkilotlarida o’quv metodik hujjatlarni yuritish va pedagogik kengashni o’tkazishga rahbarlik qilish haqida talabalar o’zlarining bilimlarini turli metodlar yordamida bayon etdilar. Mavzu bo’yicha tarqatmalar, krasvordlar, testlar yordamida o’tilgan mavzu mustahkamlandi. Klaaster va veen diagrammasi metodi

yordamida yangi mavzu talabalarga tushuntirib berildi va aqliy hujum metodi yordamida yangi mavzu mustahkamlandi. Oila tarbiyasi, estetik tarbiya, ismoniy tarbiya turlari o'zaro talabalar tomonidan qiyosiy tahlil qilindi. Davlat ta'lim standartlari asosida o'quv rejalari va dasturlar tuzilgan

O'qituvchi o'quv jarayonini tashkil etishda o'quv rejalari va dasturlariga amal qilgan holda darsni tashkil qildi. Dars ilg'or pedagogik texnologiya asosida tashkil etildi. Mavzuning rejalari aniq va to'liq berilgan. Dars davomida o'qituvchi tezkor savollar yordamida "Raqamlar tahlili metodi"ni qo'llagan holda o'tilgan mavzuni mustahkamlab oldi. Talabalarni bugungi kundagi siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy yangiliklar bilan tanishtirib o'tdi. O'qituvchi darsni tashkil etishda pedagog olimlar fikrlaridan foydalangan holda darsni tashkil etdi. Pedagog o'quv materialini tushuntirishda har xil vositalar bilan uning talabalar tomonidan idrok etilishiga, anglashiga, esda saqlab qolishiga erishdi. Dars jarayonida talabalarga "Aqliy hujum" metodi yordamida savollar berdi va savollarga javob oldi.

So'z kafedramiz dotsenti M.O'.Naimovga

Darsning sifati har bir dars komponentlarining to'g'ri aniqlanganligi ularning ratsional uyg'unlashuviga bog'liq. Shunday ekan, bugungi O.Achilovning ochiq darsini kuzatib, quyidagi fikrlarni aytmoqchiman.

Darsni metodik jihatdan to'g'ri tashkil etdi:

- a) darsda maqsadni aniq ta'limiy va tarbiyaviy masalaga qaratdi.
- b) o'quv materiallarini tahsil oluvchilarga yetkazishda munosib metoddan foydalandi,
- v) talabalar jamoasi aniq bir faoliyatga jalb etildi.
- g) darsning rejasi va maqsadi aniq, puxta oldindan rejalashtirilgan. "Pedagogika" fani bo'yicha me'yoriy hujjatlar yetarli. Dars jarayonida bahs usullaridan samarali foydalanildi. Ilg'or pedagogik texnologiyalar usulidan foydalanildi. Darsda talabalar faol ishtirok etdilar. Dars qiziqarli tashkil etildi

Yosh avlodni bilimli, ma'rifatli shaxs sifatida kamol toptirishda ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalarining ahamiyati beqiyosdir. Bugungi ochiq darsni O.Achilov ilg'or pedagogik texnologiyalar asosida olib bordi. Dars davomida talabalarning faolligini oshirishga, muntazam tarzda qiziquvchanligini oshirishga harakat qildi. O'qituvchi oldiga qo'ygan maqsadiga erishdi.

O'qituvchi L.Elmuurodova– “Maktabgacha ta’lim-tarbiyani tashkil etish ” fanining namunaviy dasturi, ishchi dasturi, kalendar tematik ish rejasi, fanning texnologik xaritasi, ma’ruza matnlari mavjud. Mavzu juda qiziqarli yoritib berildi. Darsda ko’rgazmali qurollardan foydalanildi. Talabalar savollarga erkin javob berdilar.O’qituvchi darsni tashkil etish jarayonida pedagogik texnologiyalardan to’g’ri foydalangan holda talabalarni mash’g’ulotga jalb qila oldi.

O’qituvchi I.Turdiyeva – O’qituvchi darsni to’g’ri tashkil qilgan talabalar bilan ishlash jarayoniga alohida e’tibor qaratilgan. Zamonaviy axborot texnologiyalardan foydalanganligi va taqdimotni talab darajasida tayyorlanganligi talabalarni darsga bo’lgan qiziqishlarini yanada oshirdi. Tarbiya turlari va bolaga ta’lim tarbiya berish masalasi soda yoritilgan. Talabaning bilim olishdagi mustaqilligini oshirish, mustaqil faoliyatini tashkil etish yo’li bilan ular nutqining to’g’riligi va sofligiga mas’uliyat bilan qarash lozim, deb o’ylayman.


Kamchiliklari:

1. Mavzuni tushuntirish jarayonida ko’proq o’tilgan mavzuga urg’u berildi
2. Metodlarni qo’llash jarayonida 1-guruhda ko’rgazmali vositalar yetishmadi.

Kafedra yig’ilishi qaror qildi:


1. O.Achilovning ochiq darsi zamonaviy talablar darajasida o’tganligi, unda hozirgi ta’lim metodlaridan, axborot texnologiyalardan unumli foydalanishning muhim jihatlari qamrab olingani qayd qilinsin.
2. O.Achilovning olib borgan ochiq darsning dolzarbligi, ilmiy-amaliy jihatdan mukammalligi hisobga olinib, ijobiy boholansin.

Kafedra mudiri:



Sh.J.Suyunov

Kotiba:



S.Esanova

Ochiq dars jarayonlaridan lavhalar



